

HUDUDLARDA ENERGIYA RESURS SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLASHTIRISHNING IQTISODIY TAHLILI

Safarov Akbar Shokirovich

Iqtisodiyot va Pedagogika Universiteti

E-mail: safarovakbar357@gmail.com

Annotatsiya

Energetika sektori iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridan biri bo‘lib, hududlar rivoji uchun muhim ahamiyatga ega. Biroq, energetika resurslarini samarali boshqarish, ularni optimal foydalanish hamda tejamkor resurslardan foydalanib energiyani ishlatish zarurati tobora ortib bormoqda. Ushbu masala nafaqat ekologik, balki iqtisodiy jihatdan ham dolzarb bo‘lib, raqamli texnologiyalarning joriy etilishi energetika resurslarini boshqarishda yangi imkoniyatlar yaratadi. Tadqiqotda hududlarda energiya resurslarining samaradorligini oshirishda raqamlashtirishning iqtisodiy tahlili, uning potentsiali, foydalari va amalga oshirishdagi muammolar ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: energetika resurslari samaradorligi, energetika resurslarini modernizatsiya qilish, innovatsion rivojlanish, xarajatlarni minimallashtirish, salohiyatni baholash, optimallashtirish, klasterlashtirish.

Аннотация

Энергетический сектор является одним из основных секторов экономики и имеет большое значение для развития регионов. Однако возрастает потребность в эффективном управлении энергетическими ресурсами, их оптимальном использовании, а также в применении экономических ресурсов для энергоснабжения. Этот вопрос актуален не только с экологической, но и с экономической точки зрения, а внедрение цифровых технологий создаёт новые возможности в управлении энергетическими ресурсами. В исследовании будет проведён экономический анализ цифровизации в повышении эффективности использования энергоресурсов в регионах, рассмотрены её потенциал, преимущества и возможности, а также проблемы реализации.

Ключевые слова: эффективность энергоресурсов, модернизация энергоресурсов, инновационное развитие, минимизация затрат, оценка эффективности, оптимизация, кластеризация.

Abstract

The energy sector is one of the main sectors of the economy and is of great importance for the development of regions. However, the need for effective management of energy resources, their optimal use, and the utilization of economical resources is increasing. This issue is relevant not only from an ecological perspective but also economically, and the introduction of digital technologies creates new opportunities in energy resource management. The study focuses on the economic analysis of digitization in improving the efficiency of energy resources in regions, examining its potential, benefits, and opportunities, as well as the challenges in implementation.

Keywords: efficiency of energy resources, modernization of energy resources, innovative development, cost minimization, efficiency assessment, optimization, clustering.

KIRISH

Hududlarning iqtisodiy rivojlanishi ularning barqarorligi va ijtimoiy farovonligi uchun muhim jihatlardan biri hisoblanadi. Raqamlashtirish jarayoni esa bugungi kunda iqtisodiy o‘shish va raqobatbardoshlikni oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

Ushbu maqolada hududlarning iqtisodiy rivojlanishida raqamlashtirishning ahamiyati, uning afzalliklari va mavjud muammolari batafsil tahlil etiladi. Tadqiqotimizda energetika resurslari samaradorligini oshirish — bu energiya resurslaridan foydalanishni optimallashtirish, ularni samarali boshqarish va iqtisodiyotda energiya sarfini kamaytirish jarayonidir. Ushbu jarayon, ayniqsa, global isish, energiya xavfsizligi va iqtisodiy rivojlanish masalalariga qarshi kurashishda muhim rol o‘ynaydi.

Energetika samaradorligi nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilish, balki iqtisodiyotni rivojlantirish va energetik xatarlarni kamaytirish uchun ham zarurdir. Shu maqsadda, 2024-yilda hududlarda elektr energiyasi va tabiiy gazni tejash bo‘yicha maqsadli ko‘rsatkichlar shakllantirildi. Bu ko‘rsatkichlar ishlab chiqarishga xalal bermagan holda, energiya iste‘molini samarali tashkil etish orqali muayyan hajmlarni tejashni nazarda tutadi.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida elektr energiyasi iste‘moli sezilarli darajada oshib, yangi rekord ko‘rsatkichlar qayd etilmoqda. Masalan, 2023-yil 26-iyul kuni mamlakat bo‘ylab elektr energiyasi iste‘moli 250,7 million kVt·soatni tashkil etdi, bu esa 2022-yilning shu kuniga nisbatan 5,8 foizga ko‘pdir. Elektr energiyasiga bo‘lgan talabning bunday o‘shishi iqtisodiy rivojlanish, aholi sonining ko‘payishi va urbanizatsiya jarayonlari bilan bog‘liq. Shu bilan birga, anomal issiq ob-havo sharoitlari ham iste‘mol hajmining oshishiga ta‘sir ko‘rsatmoqda [1].

O‘zbekiston Respublikasining ortib borayotgan talabini qondirish va ilg‘or jahon tajribasi, shuningdek, jahon elektroenergetika sanoatini rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalarini hisobga olgan holda, elektr energetikasini yanada mutanosib rivojlantirishni ta‘minlash maqsadida 2020–2030-yillarga mo‘ljallangan “O‘zbekistonni elektr energetikasi bilan ta‘minlash” loyihasi ishlab chiqilgan. Konsepsiyada mamlakatimizning o‘rta va uzoq muddatli istiqbolli rivojlanish maqsad va yo‘nalishlari, ustuvor yo‘nalishlari hamda davlat energetika siyosatini amaliy amalga oshirish bosqichlarida samaradorlikni ta‘minlash mexanizmlari belgilab berilgan [2].

Hududlar bo‘yicha energiya sarfi va elektr energiyasi iste‘moliga ta‘sir etuvchi omillarni chuqur tahlil qilish, resurslardan samarali foydalanish va energiya ta‘minotini optimallashtirish dolzarb muammo hisoblanadi. Mazkur tahlil hududlarda energiya iste‘moli va elektr energiya taqsimotini yanada samarali tashkil etish bo‘yicha ilmiy va amaliy takliflar ishlab chiqishga qaratilgan bo‘lib, iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga o‘z hissasini qo‘shishi kutilmoqda.

ADABIYOTLAR SHARHI

Raqamlashtirish texnologik innovatsiyalar va taraqqiyotning namunasidir, chunki u moliyaviy xizmatlar va texnologiyalarning uzluksiz birlashuvidan kelib chiqadi. Raqamli texnologiyaning iqtisodiy ta'siri odatda yashil iqtisodiyotni rag'batlantirishda kuzatiladi. Shunday qilib, raqamlashtirish va yashil iqtisodiyotning ta'siri mamlakatlar va usullarga qarab farq qiladi, bu esa munosabatlarni tahlil qilishda o'ziga xos yondashuvlarni talab etadi.

“The Role of Digital Economy in the Development of Uzbekistan” asarida raqamli iqtisodiyot muqobil energiya manbalaridan foydalanish, ekologik toza texnologiyalarni rivojlantirish va resurslardan samarali foydalanish imkoniyatlarini yaratish ta'kidlangan. Bunday yondashuvlar iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi va atrof-muhitni muhofaza qilishga yordam beradi. Raqamlashtirish darajasi va uning iqtisodiy rivojlanishga ta'siri har bir hududda farqlanishi – o'rta va past darajada rivojlangan hududlar yuqori raqamli infratuzilma va xizmatlarga ega hududlarga qaraganda ancha sekin rivojlanishiga sabab bo'lishi mumkin [1].

Klaus Schwabning “The Fourth Industrial Revolution” asarida sanoatning to'rtinchi inqilobi davridagi raqamli texnologiyalar hududlarning iqtisodiy salohiyatini oshirishda qanday rol o'ynashi batafsil tahlil qilinadi. U, xususan, texnologiyalarni keng ko'lamda joriy etish nafaqat yirik shaharlar, balki kichikroq hududlarda ham iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantirishini ta'kidlaydi [2].

Raqamli iqtisodiyot hududlarning iqtisodiy salohiyatini oshirishda asosiy omil sifatida ko'riladi. “The Effects of Digitalization on Employment and Economic Growth in Urban Areas of Uzbekistan” asarida hukumatlar uchun tavsiyalar berilgan bo'lib, ular hududiy raqamli infratuzilmani rivojlantirish va aholining raqamli savodxonligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi [3].

Muallif “Raqamli Transformatsiya va Davlat Siyosati: O'zbekiston konteksti” asarida raqamli texnologiyalarning iqtisodiyotga, jumladan hududiy rivojlanishga ta'sirini ko'rib chiqadi. Asarda hududlarning raqamli transformatsiyasi ularga ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish va innovatsiyalarni joriy etish orqali iqtisodiy o'sishni tezlashtirish imkonini berishi haqida so'z boradi [4].

Bukht va Heeks raqamli iqtisodiyotning ta'riflari va uning turli iqtisodiy darajalarga ta'sirini o'rganadi. Hududiy iqtisodiyotda raqamlashtirish jarayonlarini tahlil qilish uchun amaliy yondashuvlar taklif etadi: Mahalliy resurslardan samarali foydalanish: raqamli infratuzilmaning yaratilishi va rivojlantirilishi hududiy korxonalar va xususiy sektor uchun yangi imkoniyatlar yaratadi, xususan, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda qo'l keladi; Investitsiyalarni jalb qilish: raqamlashtirish jarayoni hududlarning jozibadorligini oshiradi, chunki raqamli infratuzilma va xizmatlar yuqori texnologiyali kompaniyalar va investorlar uchun muhim omil hisoblanadi; Ijtimoiy-iqtisodiy tenglikni ta'minlash: elektron hukumat tizimlari va raqamli xizmatlar aholi va tadbirkorlar o'rtasidagi iqtisodiy va ma'lumot resurslariga kirish imkoniyatlarini tenglashtiradi [5].

Ushbu maqolada mintaqada raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi, uning mamlakat iqtisodiy salohiyatini oshirishdagi roli va kelgusi imkoniyatlari batafsil

o'rganilgan. Hisobotda mamlakatning raqamli transformatsiyasini jadallashtirish bo'yicha muhim strategiyalar va amaliy tavsiyalar berilgan. AKT infratuzilmasini takomillashtirish, internet qamrovini kengaytirish va texnologik startaplarni rivojlantirish orqali hududiy rivojlanishni rag'batlantirish masalalari ko'tarilgan [6].

METADOLOGIYA

Tadqiqot metodologiyasida statistik tahlil va ma'lumotlarga asoslangan yondashuvlar qo'llanildi. Tadqiqotda O'zbekiston hududlari bo'yicha energiya iste'moli ko'rsatkichlari, jumladan, elektr energiyasi, tabiiy gaz, neft mahsulotlari va ko'mir kabi resurslarning iste'moli yillar kesimida tahlil qilindi. Ma'lumotlar asosida hududiy va vaqt bo'yicha tendensiyalar, shuningdek, resurslardan foydalanish samaradorligi aniqlanib, energiya iste'molidagi o'zgarishlarning sabab va oqibatlari o'rganildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ekonometrik modellar iqtisodiy nazariy tushunchalarni statistik ma'lumotlar bilan uyg'unlashtirib, amaliyotdagi tendensiyalarni tahlil qilish va kelajakdagi oqibatlarni prognoz qilishga imkon beradi. Hududlarda energetika resurslari samaradorligini oshirish uchun qo'llanilishi mumkin bo'lgan asosiy modellar quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. Hududlarda energetika resurslarini samarali boshqarish va iqtisodiy o'sish. Hududlarda energetika resurslarini samarali boshqarishda ekonometrik modellarning asosiy maqsadi energiya sarfini minimallashtirish, ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish va umumiy iqtisodiy samaradorlikni oshirishdir. Shu doirada yangilangan energiya manbalari va energiya samaradorligini oshirish uchun yangi texnologiyalardan foydalanish zarur.

2. Energiya iste'molini minimallashtirish va ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish. Hududlarda energetika resurslarini samarali boshqarishda asosiy vazifa — energiya sarfini minimallashtirish, ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish va umumiy iqtisodiy samaradorlikni oshirishdir. Buning uchun, shuningdek, xodimlarni energiyani tejash va ishlab chiqarishni optimallashtirish bo'yicha o'qitish hamda malakalarini oshirishga katta e'tibor qaratish talab etiladi.

Hududlarda energiya resurslarini boshqarishda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan dasturlarni qabul qilish ham muhim ahamiyatga ega. Energetika samaradorligini oshirish quyidagi yo'nalishlarda ahamiyat qaratishni talab qiladi: Atrof-muhitga ta'sirni kamaytirish. Samarali energiyadan foydalanish, ayniqsa, qayta tiklanadigan energiya manbalariga o'tish, issiqxona gazlarini kamaytiradi va atrof-muhitni ifloslanishdan himoya qiladi.

Iqtisodiy tejamkorlik. Energiya samaradorligini oshirish orqali sanoat va iste'molchilar uchun energiya xarajatlarini kamaytirish mumkin, bu esa raqobatbardoshlikni oshirib, iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlaydi. Energiya xavfsizligini ta'minlash. Energiya resurslarining cheklanganligini hisobga olgan holda, energiya samaradorligi energiya xavfsizligini oshiradi, chunki bu energiya resurslaridan foydalanishni yaxshilaydi va tashqi ta'minotga bo'lgan qaramlikni kamaytiradi.

Texnologik yangiliklar va innovatsiyalarni joriy qilish yo'lida, yangi texnologiyalar va innovatsiyalarni tatbiq etish energiya samaradorligini oshirishda katta rol o'ynaydi. Masalan, quyidagi imkoniyatlar mavjud: Energiyani qayta ishlash texnologiyalari. Yangi avlod qurilmalaridan va qayta tiklanadigan energiya manbalaridan samarali foydalanish imkoniyati mavjud. Aqlli energiya tarmoqlari. Aqlli tarmoqlar energiya taqsimotini boshqarish, ortiqcha sarfni kamaytirish va tarmoqdagi nosozliklarni aniqlashga yordam beradi. Internet of Things (IoT). IoT yordamida energiya iste'moli va energiya ta'minoti tizimlari real vaqtda kuzatiladi, bu esa energiya sarfini optimallashtirish imkoniyatini yaratadi. Katta ma'lumotlar (Big Data). Katta ma'lumotlar texnologiyalari yordamida energiya iste'moli va ta'minoti tahlil qilinib, samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishga yordam beradi. Sun'iy intellekt. Sun'iy intellekt energiya tizimlaridagi nosozliklarni oldindan bashorat qilish va energiya ta'minotini optimallashtirish imkonini beradi.

Bu usullar orqali energiya iste'molini kuzatish va tahlil qilish, energiya sarfini optimallashtirish uchun strategiyalar ishlab chiqish, hamda tejamkor texnologiyalarni joriy etish mumkin. Sanoat va qurilish sektorida energiya samaradorligini oshirish uchun quyidagi choralar ko'rish maqsadga muvofiq: Sanoatda: Sanoat uskunalari modernizatsiya qilish, energiyani tejash uchun energiya samarali uskunalari va texnologiyalarni qo'llash. Qurilishlarda: Yangi qurilishlar va mavjud binolarda energiya samaradorligini oshirish uchun izolyatsiya, qulay energiya tizimlarini o'rnatish, yashil qurilish texnologiyalaridan foydalanish. Qayta tiklanadigan energiya manbalari: Quyosh, shamol, geotermal va gidroenergiya manbalaridan foydalanish energiya samaradorligini oshiradi, shu orqali energiya ishlab chiqarish xarajatlari kamayadi, xavfsiz va barqaror energiya manbalari ta'minlanadi, atrof-muhitga ta'sir esa kamayadi.

Davlat siyosati va strategiyalar doirasida energiya samaradorligini oshirish uchun quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilishi mumkin: Energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan dasturlar. Davlat tomonidan energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan qo'llab-quvvatlovchi dasturlarni yaratish. Yashil iqtisodiyotga o'tish. Davlatlar tomonidan qayta tiklanadigan energiya manbalariga sarmoya kiritish va ularni rivojlantirish uchun strategiyalar ishlab chiqish. Soliq imtiyozlari va subsidiyalar. Energiya tejash va samarali foydalanishni rag'batlantirish uchun soliq imtiyozlari va subsidiyalarni taqdim etish.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari hududiy energiya ta'minotini samarali boshqarish uchun elektr energiyasi talabini tahlil qilish va optimallashtirishda ekonometrik modellar muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. Xitoy va Osiyoda elektr energiyasi iste'molining tez o'sishi kuzatilsa, Yevropada energiya samaradorligini oshirish bo'yicha ijobiy natijalar mavjud. Elektr energiyasiga bo'lgan talabni prognozlashda ilg'or ekonometrik modellarni qo'llash zarurati yuqori ekanligi ta'kidlandi. Yuqoridagi takliflar hududlarda elektr energiyasi ta'minot tizimini optimallashtirishda amaliy asos bo'lishi mumkin.

Ekonometrik modellar hududlarda energetika resurslarining samaradorligini oshirishga yordam beradigan muhim vosita sifatida, statistik ma'lumotlar asosida iqtisodiy o'sish va energiya sarfi o'rtasidagi dinamik aloqalarni aniqlashga xizmat qiladi. Shu orqali, bu modellar hududlar darajasida energetika resurslarini samarali boshqarish va ulardan optimal foydalanishga imkon yaratadi.

Hududlarda energiya resurslarining samaradorligini oshirishda raqamlashtirishning iqtisodiy tahlili shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalar nafaqat energiya samaradorligini oshirish, balki iqtisodiy o'sish, sarmoya jalb qilish va barqaror rivojlanish uchun ham muhimdir. Raqamlashtirish orqali energiya ta'minotining samarali boshqarilishi, xarajatlarning kamayishi, mahsuldorlikning oshishi va atrof-muhitning saqlanishi ta'minlanishi mumkin. Biroq, raqamlashtirishni joriy etishda mavjud bo'lgan iqtisodiy to'siqlarni bartaraf etish zarur. Energiya sektori uchun raqamli transformatsiya hududlarning barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim omil sifatida xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. «Energetika», O'zbekiston Respublikasi Hukumat portali. Просмотрено: 20 декабрь 2024 г. [Онлайн]. Доступно на: https://gov.uz/activity_page/energy
2. «UNSD — Energy Statistics». Просмотрено: 20 декабрь 2024 г. [Онлайн]. Доступно на:
3. Рахимов, А. Н., Махматкулов, Г. К., ва Рахимов, А. М. (2021). Построение эконометрических моделей развития сферы услуг для населения региона и их прогнозирование. Американский журнал прикладных наук, 3(02), 21–48.
4. Jo'rayev, F. D., Ochilov, M. A., Rakhimov, A. M., & Doliyev, S. Q. (2023). Algorithms for improving models of optimal control for multi-parametric technological processes based on artificial intelligence. In E3S Web of Conferences (Vol. 460, p. 04013). EDP Sciences.
5. Ochilov, M. A., Juraev, F. D., Махматқулов, Г. Х., & Рахимов, А. М. (2020). Analysis of important factors in checking the optimality of an indeterminate adjuster in a closed system. Journal of Critical Review, 7(15), 1679–1684.
6. Raximov, A. N. (2023). Dehqon xo'jaliklari faoliyatining istiqbolli rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar. Экономика и социум, (3-2 (106)), 255–262.
7. Jo'rayev, F. D., va G. Aralov, M. (2023). Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish jarayonini ekonometrik modellashtirish zaruriyatining asosiy jihatlari. Educational Research in Universal Sciences, 2(2), 36–43.
8. Jo'rayev, F. D. (2023). Econometric modeling of the development and management of agricultural production based on cluster analysis (on the example of the 584 Kashkadarya region) // Экономика, Т. 8, с. 584–590.
9. Khudoyorov, L. N., Noraliyeva, S. S., & Вахронова, N. S. (2024). Development of digital economy and its role today. Экономика и социум, (5-1 (120)), 432–434.

10. Khudoyorov, L. N. (2020). Forecasting the development of small business and private entrepreneurship on the basis of multifactorial empirical models. *Science and World*, (11 (87)), 41.
11. Мухитдинов, К. S., Махматкулов, Х. G. Предоставление торговых услуг населению региона. *Международный журнал тенденций научных исследований и разработок (IJTSRD)*, e-ISSN 2456–6470.
12. Махматқулов, G. K., & Malikova, N. T. (2019). Stochastic model activity system of rail transport. *European Science Review*, 1(1–2), 152–156.
13. Махматқулов, G. O. X. (2023). “Kompyuter tizimlari va tarmoqlari” fanidan amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarini o‘qitishda virtual Cisco Packet Tracer dasturidan foydalanish. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(15), 483–486.
14. Rahimov, A. (2023). Mehmonxona va umumiy ovqatlanish korxonalari faoliyatini ekonometrik modellashtirishda zamonaviy uslubiy yondashuvlar. *Iqtisodiyot va ta’lim*, 24(6), 245–250.
15. Rakhimov, A. M. (2019). Importance of bank deposit policy in expanding the deposit base of commercial banks. *Экономика и бизнес: теория и практика*, (5-2), 198–200.
16. Muhammadiyevich, R. A. (2021). Residence and catering services to the population: the importance of econometric modeling in regulatory assessment of consumer requirements to improve display quality. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(12), 1043–1048.
17. Jo‘rayev, F. D. S., & Normurolovich, S. S. (2024). Agrosanoat klasterlari o‘shish omili sifatida mintaqaning raqobatbardoshligini baholash. *Prospects and Main Trends in Modern Science*, 2(16), 46–52.
18. Sulstonov, S. N. (2024). Aholini o‘shib borishi va ularning daromadlari tabaqalashuvini kamaytirish islohatlarini takomillashtirish yo‘nalishlari. *Spanish Journal of Innovation and Integrity*, 295–303.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhah: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, fevral, 2-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournlbot](https://t.me/marketinjournlbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. ГOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**